

## “Tadqiqotda ishtirok etish to‘g‘risidagi Oferta”

### 1. Umumiy qoidalar

- 1.1. Ushbu bilan “TBC Bank” ATB nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi Boshqaruv Raisi S.Tetrasvili (keyingi o‘rinlarda “Tashkilotchi” deb ataladi) muomalaga layoqatli jismoniy shaxsga yoki voyaga yetmagan shaxsga uning ota-onasi (vasiysi, homiysi) ning roziligi bilan (keyingi o‘rinlarda “Respondent” deb ataladi) axborot/tahliliy tadqiqotda (bundan buyon matnda “tadqiqot” deb yuritiladi) ishtirok etish uchun turli xil usullardan foydalangan holda, jumladan, tanlov asosida, masalan: so‘rovlar, batafsil suhbatlar, qulaylik sinovlari va h.k. masofadan moliyaviy xizmatlar foydalanuvchilari uchun mahsulotlar va xizmatlarning jozibadorligi va ergonomikligini baholash, iste’mol xususiyatlarini tahlil qilish, tadqiqot natijalaridan mahsulotlar va xizmatlarni takomillashtirish, Tashkilotchining marketing strategiyasini aniqlash, reklama kampaniyalarini o‘tkazish, ilmiy, axborot, o‘quv va boshqa shu kabi maqsadlarda foydalanish uchun ushbu Kelishuvni tuzishni taklif qiladi.
- 1.2. Ushbu Oferta rasmiy hujjat hisoblanadi va Tashkilotchining rasmiy veb-saytida e’lon qilingan.
- 1.3. Respondentning ushbu Oferta shartlariga roziligi ushbu Kelishuvga havola mavjud bo‘lgan Tashkilotchining maxsus shaklini to‘ldirganda yakuniy va so‘zsiz hisoblanadi.

2.1. Respondent ushbu Kelishuvda nazarda tutilgan shartlarda tadqiqotda ishtirok etish majburiyatini oladi, Tashkilotchi esa tadqiqotni tashkil etish va o‘tkazish majburiyatini oladi.

2.2. Respondent majburiyatlari:

- ishonchli va zarur axborotni taqdim etish;
- tadqiqot doirasida berilgan savollarga javob berish;
- tadqiqot o‘tkazish maqsadlari uchun zarur bo‘lgan harakatlarni bajarish;
- tadqiqotni tashkil etuvchi topshiriqlardan o‘tish;
- uchinchi shaxslarning intellektual faoliyati natijalaridan foydalanmaslik, aynan mualliflik va boshqa intellektual huquqlarni buzmaslik;
- Tashkilotchining dasturiy ta’mnotinu buzadigan dasturiy ta’mnotinidan foydalanmaslik.

2.3. Tadqiqot ham onlayn rejimda, ham Tashkilotchi tanlagan hududda ishtirokchining bevosita qatnashuvi bilan yuzma-yuz o‘tkazilishi mumkin.

2.4. Tashkilotchi, agar Respondent ushbu Kelishuv talablarini buzayotganiga shubha tug‘ilsa, uni tadqiqotning har qanday bosqichida ishtirok etishdan chetlatish, shuningdek, ushbu Kelishuvda nazarda tutilgan talablar va majburiyatlarni buzgan Respondentga sovrin berishni rad etish huquqiga ega.

2.5. Tashkilotchi Respondentdan olingan ma’lumotlardan (shu jumladan shaxsiy ma’lumotlar, tasvirlar va ovoz yozuvlari) tahliliy materiallar va hisobotlar, marketing tadqiqotlari va boshqa shu kabi materiallarda har qanday shaklda foydalanish huquqiga ega. Tashkilotchi, shuningdek, bunday materiallardan (shu jumladan, Respondentning shaxsiy ma’lumotlari, tasvirlari va ovoz yozuvlaridan) o‘z faoliyatida mahsulot va xizmatlarning tahlil qilish va rivojlantirish, reklama va marketing kampaniyalarini o‘tkazish, shuningdek, Internet tarmog‘ida nashr etish va ommaviy chiqishlarda, axborot, ilmiy, o‘quv va boshqa shu kabi maqsadlarda foydalanish huquqiga ega. Tashkilotchi Respondentdan olingan ma’lumotlarni tahlil qilish natijalarini har qanday shaklda hisobotlarda, tahliliy materiallarda, marketing tadqiqotlarda, reklama materiallarda va boshqa shu kabi materiallarda e’lon qilish va ulardan foydalanish huquqiga ega. Bunda Tashkilotchi Respondentdan olingan ma’lumotlarni uning sha’ni, qadr-qimmati yoki ishbilarmonlik obro‘siga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan usullar bilan qo’llamaslik majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

2.6. Tashkilotchi Respondentdan olingan ma’lumotlarni ushbu Kelishuvda va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda qayta ishlaydi.

2.7. Tadqiqotda ishtirok etayotgan Respondent o‘zining shaxsiy ma’lumotlari, shuningdek, Respondentga ma’lum bo‘lgan uchinchi shaxslarning ma’lumotlari xavfsizligini ta’minalash va ulardan ruxsatsiz foydalanishning oldini olish choralarini ko‘rish majburiyatini oladi. Respondent tadqiqot jarayonida bunday ma’lumotlarni oshkor qilganlik uchun shaxsan javobgar hisoblanadi. Agar tadqiqot davomida Tashkilotchiga tasodifan Respondentning yoki u xavfsizlik choralarini ko‘rmagan uchinchi shaxslarning shaxsiy ma’lumotlari ma’lum bo‘lib qolsa, Tashkilotchi Respondentni tegishli xavfsizlik choralariga rioya qilish zarurligi to‘g‘risida ogohlantirishga haqli.

2.8. Tashkilotchi Respondentning quyidagi ma’lumotlarini qayta ishlaydi: ism-sharifi, bog‘lanish uchun ma’lumotlari (masalan, telefon raqami, elektron pochta va boshqa ma’lumotlar), Respondentning foto va video

- materiallari, shuningdek, tadqiqot davomida olingan, Respondent bilan ushbu Sharhnomani tuzish va bajarish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma’lumotlar. Ma’lumotlarni qayta ishslash avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda ham, avtomatlashtirish vositalarisiz ham amalga oshirilishi mumkin, shu jumladan yig‘ish, tizimlashtirish, to‘plash, saqlash, aniqlashtirish, foydalanish, uzatish (tarqatish, taqdim etish, kirish), blokirovka qilish, yo‘q qilish. Respondentning shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishslashdan maqsad ushbu Kelishuv bo‘yicha majburiyatlarni bajarishdir. Tashkilotchi Respondent ma’lumotlarini qayta ishslashni o‘zining affilangan shaxslariga topshirishga haqli.
- 2.9. Respondent tadqiqot jarayonida Tashkilotchi tomonidan Respondentning xulq-atvorini qayd etish, shu jumladan video qayd etish mumkinligini tushunadi va bunga rozi bo‘ladi, bu tadqiqot davomida obyektiv natijalar olish uchun zarurdir.
- 2.10. Tadqiqotlarni o‘tkazish bilan bog‘liq barcha masalalar bo‘yicha Tashkilotchining qarorlari yakuniy hisoblanadi va qayta ko‘rib chiqilmaydi.
- 3.1. Tadqiqotdan o‘tganlik uchun Tashkilotchi tomonidan mukofot berilishi mumkin. Tadqiqotning sovrin jamg‘armasi Tashkilotchining mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi. Mukofot sifatida, masalan, Tashkilotchi yoki Tashkilotchi hamkorlarining xizmatlariga chegirmalar taqdim etilishi va boshqalar bo‘lishi mumkin.
- 3.2. Tadqiqotda ishtiroy etganligi uchun Respondentga beriladigan mukofotning aniq turi va miqdori Respondent tomonidan sarflangan vaqt miqdori, ishtiroy etish turi (yuzma-yuz yoki onlayn) va tadqiqot predmeti va xususiyati bilan bog‘liq boshqa mezonlarga bog‘liq. Mukofotning aniq miqdori va turi Tashkilotchining qarori asosida belgilanadi.
- 3.3. Agar sovrinni topshirish Respondentning aybi bilan amalga oshirilmagan bo‘lsa (jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda: shaklni to‘ldirishda muloqot uchun ma’lumotlarni noto‘g‘ri taqdim etish va boshqalar), sovrinni takroran topshirish amalga oshirilmaydi, sovrin talab qilinmagan hisoblanadi va Tashkilotchi uni o‘z xohishiga ko‘ra tasarruf etish huquqiga ega.
- 3.4. Sovrirlarning naqd bo‘limgan qismining qiymatini pul ekvivalenti bilan to‘lash yoki ularni boshqa sovrinlar bilan almashtirish amalga oshirilmaydi. Sovrin qaytarilmaydi va almashtirilmaydi. Sovrin uchinchi shaxsga, shu jumladan boshqa Respondentga ham topshirilishi mumkin emas.
- 3.5. Tomonlar Tashkilotchining Respondentga sovrinlar topshirilishini tashkil etish maqsadida uning shaxsiy ma’lumotlarini zarur hajmda o‘z hamkorlariga taqdim etishi mumkinligini tushunadilar va bunga rozilik bildiradilar.
- 4.1. Kelishuvning 4-bo‘limi shartlari tadqiqot tanlov asosida o‘tkazilgan taqdirda qo‘llaniladi (Tanlov).
- 4.2. Tanlov O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi, Tanlov rus va/yoki o‘zbek tilida o‘tkaziladi. Tanlovni o‘tkazish muddatlari - Tashkilotchi tomonidan ochiq shaklda xabar qilingan sanadan boshlab, Tanlov Tashkilotchi tomonidan to‘xtatilgunga qadar. Tanloving to‘xtatilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar Respondentlarga oldindan xabar qilinadi. Tashkilotchi tomonidan Tanloving to‘xtatilishi to‘g‘risida xabardor qilingan vaqtida tanlov topshirig‘ini bajarib bo‘lgan respondentlar ushbu Kelishuv shartlariga muvofiq sovrin olish huquqidan mahrum etilmaydilar, bunda Tashkilotchi tomonidan Tanloving to‘xtatilishi to‘g‘risidagi qaror e’lon qilingandan keyin yangi Respondentlarni taklif qilish amalga oshirilmaydi.
- 4.3. Shakl to‘ldirilgandan so‘ng, Tashkilotchi Respondentga tanlov topshirig‘ini berish va uni o‘tkazish uchun u bilan bog‘lanadi.
- 4.4. Respondent Tashkilotchining tanlov topshirig‘ini ushbu Kelishuvda nazarda tutilgan shartlarda, shuningdek, tanlov topshirig‘ini yuborishda Tashkilotchi tomonidan belgilangan muddatlarda bajarish majburiyatini oladi, Tashkilotchi esa Respondentning tanlov topshirig‘ini bajarish natijalarini ko‘rib chiqish va Respondentga aniq sovrinni topshirish imkoniyatini baholash majburiyatini oladi.
- 4.5. Tashkilotchi tanlov topshirig‘ini Respondent tomonidan bajarishni o‘z xohishiga ko‘ra istalgan vaqtida to‘xtatishga haqli. Tanlov topshirig‘ini bajarishni to‘xtatish to‘g‘risidagi qaror Tashkilotchi tomonidan qabul qilinadi va uning ustidan e’tiroz bildirilmaydi.
- 5.1. Tomonlar alohida ta’kidlab o‘tdilarki, Tashkilotchiga tegishli bo‘lgan va uchinchi shaxslarga noma’lumligi hamda qonuniy asosda erkin foydalanish imkoniyati mavjud emasligi tufayli uning uchun haqiqiy yoki potensial qiymatga ega bo‘lgan har qanday ma’lumot, Respondent tadqiqotda ishtiroy etish jarayonida ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan axborot, maxfiy hisoblanadi. Maxfiy axborotga quyidagilar kiradi, biroq bular bilan cheklanmaydi:

- a) mahsulotlar va xizmatlarni, shu jumladan yangilarini tadqiq qilishda ishtirok etish orqali olingen har qanday ma'lumot;
  - b) texnik axborot, shu jumladan axborot tizimlari to'g'risidagi ma'lumotlar, axborot tizimlaridan foydalanish va ulardan foydalanish bo'yicha uslubiy va me'yoriy materiallar, tadqiqotlar va sinovlar to'g'risidagi hisobotlar, loyihibar, chizmalar, foydalaniladigan materiallar to'g'risidagi ma'lumotlar, ishlab chiqarish usullari, EHM uchun dasturlarning obyekt va boshlang'ich kodi, shuningdek, yuqorida sanab o'tilgan axborotning vizuallashtirilgan tasvirlari;
  - c) biznes axboroti, shu jumladan arxiv ma'lumotlari, narxlarni shakllantirish tartibi, sotish strategiyasi, marketing rejali, tadqiqot ma'lumotlari;
  - d) strategik axborot, shu jumladan yangi mahsulotlar, xizmatlar yoki bozorlar to'g'risidagi takliflar; mulkni sotib olish va begonalashtirish masalalari bo'yicha rejalar yoki muzokaralar;
  - e) maxfiylik shartlari assosida taqdim etilgan uchinchi shaxslarning ma'lumotlari: xo'jalik faoliyati, texnologiya, usullar, dasturiy ta'minot to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan kontragentlar, shuningdek, affilangan shaxslar va biznes hamkorlarning boshqa ochiq bo'lмаган ma'lumotlari;
  - f) Tashkilotchi uchun haqiqiy yoki potensial qiymatga ega bo'lishi mumkin bo'lган boshqa ma'lumotlar va axborot; i) maxfiy deb belgilangan yoki ii) taqdim etish holatlari uning maxfiyligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradigan yoki iii) xususiyati uning maxfiyligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradigan axborot.
- 5.2. Respondent maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha o'ziga bog'liq bo'lган barcha choralarini ko'rish va Tashkilotchining roziligidisiz ularni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.
- 5.3. Maxfiy ma'lumotlar har doim Tashkilotchining mulki bo'lib qoladi, hech qanday uchinchi shaxslarga berilmasligi, undan nusxa ko'chirilmasligi yoki boshqa usulda ko'paytirilmasligi yoxud taqdim etuvchi Tomonning oldindan yozma roziligidisiz boshqa usulda foydalanilmasligi kerak.
- 5.4. Ushbu Kelishuv shartlariga muvofiq Maxfiy axborotni sir saqlash majburiyati ikkala Tomon Kelishuvni imzolagan vaqtidan boshlab kuchga kiradi va ushbu Kelishuvning amal qilish muddati tugaganidan yoki u muddatidan oldin bekor qilinganidan keyin 10 (o'n) yil davomida amal qiladi.
- 5.5. Maxfiy axborotning oshkor etilishiga yo'l qo'yilgan taqdirda, Respondent bunday oshkor etish natijasida yetkazilgan barcha zararlarni qoplash majburiyatini oladi.

- 6.1. Mazkur Kelishuv Tashkilotchi tomonidan taqdim etilgan maxsus shaklni Respondent tomonidan, Voyaga yetmagan shaxs bilan Kelishuv tuzilgan taqdirda esa - Respondent va uning ota-onasi (vasiy, homiy) tomonidan to'ldirish orqali tuziladi.
- 6.2. Tashkilotchi Respondentning tadqiqot doirasidagi harakatlari yoki harakatsizligi natijasida unga yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgar emas.
- 6.3. Kelishuv bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan va/yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.
- 6.4. Ushbu Kelishuv Tashkilotchi tomonidan o'zgartirilayotgan kelishuvning yangi tahririni joylashtirish orqali Respondentni xabardor qilgan holda o'zgartirilishi mumkin. Tashkilotchi tomonidan Kelishuvga kiritilgan o'zgartirishlar bunday o'zgartirishlar e'lon qilingan kundan keyingi kunda kuchga kiradi. Respondent ushbu Kelishuvga kiritilgan o'zgartirishlarni mustaqil ravishda tekshirish majburiyatini oladi. Respondentning tanishib chiqish bo'yicha harakatlarni amalga oshirmsasligi uning o'z majburiyatlarini bajarmasligi va ushbu Kelishuvda belgilangan cheklov larga rivoja qilmasligi uchun asos bo'lmaydi.
- 6.5. Respondent Tashkilotchi tomonidan ushbu Kelishuvga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni qabul qilishni rad etishga haqli, bu esa Respondentning Kelishuvni bekor qilgan holda tadqiqotlarda ishtirok etishdan bosh tortishini anglatadi.
- 6.6. Kelishuv Tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki Respondentning talabiga ko'ra Tashkilotchining Kelishuvning 7-bandida ko'rsatilgan joylashgan manzili bo'yicha tegishli bildirishnomalar yuborish orqali bekor qilinishi mumkin.
- 6.7. Ushbu Kelishuv bilan tartibga solinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.

## 7. Tashkilotchi haqida ma'lumot

"TBC BANK" ATB (STIR 207318613)

Manzil: 100015, Toshkent shahri, Fidokor ko'chasi, 10B uy.